



**ISMATULLOH IBN NE'MATULLOH MO'JIZIYNING
«TAVORIXI MUSIQIYUN» RISOLASINI O'QIB...**

Sharipov Nigmatdjan Satibaldievich

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

«Xalq cholg'ularida ijrochilik» kafedrasini professor v.b.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10361234>

ARTICLE INFO

Received: 06th December 2023

Accepted: 11th December 2023

Online: 12th December 2023

KEY WORDS

Meros, milliy musiqa san'ati, tarix, cholg'u, ijrochilik, musiqa amaliyoti, piri-ustozlar, hofiz, homiylik, kuy(maqom)lar.

ABSTRACT

Maqolada xalqaro Bobur fondi 2010 yilda nashr etgan Ismatulloh ibn Ne'matulloh Mo'jiziyning (XIX asr) «Tavorixi musiqiyun» kitobi haqida so'z yuritiladi. Unda XII – XIX asrlar davomida yashab ijod qilgan allomalarning musiqa san'atiga oid qarashlari, shu davrda amalda qo'llanilgan musiqa cholg'ulari, musiqaning inson ruhiyatiga nisbatan ta'siri haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

Respublikamizda so'nggi yillarda tarixiy-madaniy merosimizga bo'lgan e'tibor, bu merosni o'rganish, uni tadqiqot qilish, asrab-avaylash, hamda yosh avlodni ushbu nodir ma'naviyat hazinasidan bahramand qilishga bo'lgan intilish sezilarli darajada jonlanib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Milliy musiqa san'atimiz, hech shubhasiz, boy va qadimiy tarixga ega».¹ Shunday boy tariximizdan o'rin olgan bir lavha haqida quyida so'z yuritmoqchimiz.

Xalqaro Bobur fondi «Boburiylar izidan» nomli ilmiy ekspeditsiyasi Xitoy Xalq Respublikasiga uyushtirgan safarida Qoshg'arda qo'lga kiritilgan Ismatulloh ibn Ne'matulloh Mo'jiziyning (XIX asr) «Tavorixi musiqiyun» kitobini 2010 yilda nashr etdi.

Ushbu kitobda Mo'jiziy diqqatni asosan Hirot, Samarqand va Sharqiy Turkiston madaniy muhitiga qaratgan, ya'ni Hirotidan olti kishi, Samarqanddan to'rt kishi, Sharqiy Turkistondan uch kishi – Qodirxon Yorkandiy (XIV asr), Malika Omonniso (XVI asr) va Yusuf Sakkokiyning (XVII asr) nomlari keltirilgan. Asar bilan tanishish davomida muallifning musiqa sehriga, musiqa ijodkorlariga, so'z san'atkorlariga bo'lgan mehri, jo'shqin, samimiy munosabatini sezib olish mumkin. Ana shu qaynoq munosabat kitobxonga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu jihatdan mazkur asar turkiy tilda bitilgan musiqaga oid sanoqli asarlar sirasiga kiradi.

«Tavorixi musiqiyun»² o'zining nomlanishiga mos tarzda musiqa san'ati tarixiga bag'ishlangan mo'jaz risola bo'lib, u musiqa amaliyoti va musiqaning inson ruhiga ta'siri xususida qiziqarli lavhalar, kishini o'ziga tortuvchi mulohazalarni o'z ichiga olgan. Kitobni yozishda muallif Alisher Navoiy (XV asr), Muhammad Haydar Mirzo (XVI asr), Zayniddin

¹ Mirziyoev Sh. Dillarni dillarga, ellarni ellarga payvand etadigan san'at. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 8 sentyabr soni.

² «Tavorixi musiqiyun» - «Musiq tarixi» (N.Sh.)



Mahmud Vosifiy (XVI asr), Muhammad Mirxond (XV asr) va boshqalarning asarlaridan unumli foydalangan.

Musiqa ilmining pirlari haqida soʻz yuritar ekan, Moʻjiziy eng birinchi Yofas alayhissalomning nabirasi Xariz (tahm. er.av. 1721 y.) toʻgʻrisida maʼlumot keltiradi: «Xariz **tanbur, barbat, udlarni** yasab, chalmoqni kashf qilib, olam xalqigʻa oʻrgatdilar... Yorkand, Xoʻtan ahli aning avlodlaridindurmiz. Ul zamondin bul zamongʻacha besh ming sakkiz yuz ellik yil oʻtgandur»³. Ushbu maʼlumot kitob muallifi toʻgʻrisida aniqroq tasavvurga ega boʻlishimizga asos boʻladi.

Moʻjiziy risolasida nomlari piri-ustozlar sifatida tilga olingan Mavlono Muhammad Xorazmiy (X asr) va Mavlono Safoi Samarqandiylar (XIII asr) haqida ham maʼlumotlar bor.

Zayniddin Mahmud Vosifiyning «Badoeʻ ul-voqeʻ» esdaliklar asarida voqelikni boʻrttirib koʻrsatish holatlarini koʻrishimiz mumkin. Hirotlik mashhur xushovoz Hofiz Basir (XV asr) haqida quyidagi oʻta mubolagʻali ijro manzarasini kuzatamiz: «Hofiz Basirdan ashula aytishni iltimos qilganlar. Hofiz Hoji Kirmoniyning gʻazali bilan qoʻshiq kuylayotganda bir musicha parvoz qilib, oʻzini hofizning qoʻyniga tashlagan va jon bergan. Oʻsha kuni qariyb qirq kishi hushidan ketgan. Ularni majlisdan koʻtarib olib chiqishgan». Moʻjiziy mana shu usuldan keyinroq oʻz asarida foydalanadi. Bundan kelib chiqadiki, Moʻjiziy musiqa sanʼatining inson ruhiyatiga kuchli taʼsir oʻtkazishiga ishonib, oʻquvchilarni ham musiqaning bunday sehriga ishontirishga harakat qiladi. Bunday ruhiy taʼsirlar Sharq musiqa risolalarida uchrashini eslatib oʻtish joiz.

Ushbu fikr tasdigʻini kitobda keltirilgan boshqa lavhalarda ham koʻramiz. «... Mavlono Nuʼmon Samarqandiy (XV asr) aziz hofiz qori erdi... ham xush aytguvchi va ham dilkash cholgʻuchi erdi. Samarqand olimlari majlisida Mavlono Shamsiddin Tabriziyning (XIII asr) gʻazallariga **setorni** noxunladi... Oʻndan ortuq kishi behush boʻldi...». Yana bir misol: «Hofiz Basir bahor faslida bogʻda qoʻshiq aytganda bulbulu qumri va kaptarlar, saʼva va boshqa har xil qushlar rom boʻlib, uning atrofiga yigʻilib, boshiga va kiftiga qoʻnib olishgan ekan».

Risolada yani bir eʼtiborga loyiq maʼlumot, yaʼni oʻsha davr hukmdorlarining sanʼatkorlarga nisbatan muruvvat va sahovatmandligi qayd etilgan. Sanʼatkorlar faoliyatini uyushtirish va kamol toptirishda ular koʻrsatayotgan gʻamxoʻrlikning ahamiyati eʼtirof etilgan. Misol uchun, Moʻjiziy XVI asr Qoshgʻar xoni Sulton Saʼdning sanʼatkorlarga homiylik qilganligini alohida taʼkidlab oʻtadi.

Kitob bilan tanishish jarayonida uning kuchli ahloqiy-taʼlimiy taʼsiri ham koʻzga tashlanadi. Moʻjiziy qadimgi Pifagor sheʼrida mavjud boʻlgan quyidagi fikrlarini nasriy talqinda keltiradi: «Sen oʻzingni tuzatmay turib kishiga nasihat qilma. Aybingni sanga koʻrsatgan kishini doʻst bilib aziz tut. Chiroyliq libos kiyib yurguncha, chiroyli soʻzlarni aytib yurushni oʻrgangʻil. Yaxshi soʻzni ayturgʻa qudrating boʻlmasa, yaxshi soʻzni aytquchidan oʻrgangil. Ilm oʻrganishdan nomus qilma, ilmsizlikdan nomus qil». Bu oʻrinda sanʼatkorning odobi toʻgʻrisida soʻz bormoqda.

Risola bayonining ravonligi, fikrlarning ravshanligi, ommabopligi uning qiymatini yanada oshiradi. Moʻjiziy musiqa tarixini, umuman musiqaning paydo boʻlishi va **tanbur, dutor, setor** kabi musiqiy cholgʻular ixtirosidan boshlaydi. Musiqa sanʼati ibtidosini Nuh

³ Moʻjiziy I. Tavorixi musiqiyun. T., «Mumtoz soz», 2010, (19-b.).



payg'ambar avlodlaridan bo'lgan Xarizga bog'laganidek, nazariy musiqani Pifagor faoliyati bilan uzviy aloqadi ekanligini ta'kidlaydi. Keyin X-XVII asrlarda yashab ijod qilgan musiqa ustozlari faoliyatini yoritishga kirishadi.

Xususan, Mavlono Ali Shohni (XV asr) musiqa nazariyotchisi, bastakor va musiqa cholg'ularidan **dutor**ni kashf etgan siymo sifatida ta'riflaydi. Haj safariga borganda, Iroq cho'lidan o'tayotganda musiqa ijod qilib, «**Cho'li Iroq**» deb nom qo'ygani haqida ma'lumotlar keltiradi. Fikrimizcha, bu yerda keltirilgan **dutor** cholg'uchi hozir amalda qo'llanilayotgan soz bilan o'xshashligi, yoki «**Cho'li Iroq**» kuyining hozirda ijro etilayotgan shu nomdagi musiqa asariga qanchalik yaqin bo'lganligi haqida faqat tahmin qilishimiz mumkin.

Mo'jiziy o'z kitobida musiqa ilmining o'n yetti piri haqida so'z yuritib, ularning har biriga iloji boricha to'liq ta'rif berishga harakat qiladi. Ikkinchi pir – Fisog'urs (Pifagor)ning Hindistonga kelib ilmi nujum o'rganganligi, Hindiston xalqi esa undan musiqani o'rganganligi haqida aytadi. Mo'jiziy Abu Nasr Forobiyni uchinchi pir deb ataydi va uning **qonunni** o'z qo'llari bilan yasab, sim tortib chalganligi, «**Rok**», «**Ushshoq**» kuylarini shogirdlariga o'rgatganligini ta'riflaydi. Abdurahmon Jomiyni yettinchi pir sifatida keltirib, uning **tanbur**, **setor**, **qonun** cholg'ularida ijro etganligi hamda «**Ajam**» kuyini ixtiro etganligi e'tirof etadi. Kitobda Hazrat Alisher Navoiy sakkizinchi pir sifatida ta'riflanadi va **setor**, **tanbur** cholg'ularini chalganliklari, «**Navo**» degan bir «**maqomni**» ixtiro etganligi to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Shu bilan birga, o'ninchi pir – Nu'mon Samarqandiy dilkash cholg'uchi, o'n birinchi pir – Mavlono Sohib Balxiy o'sha davr podshohining sevimli san'atkori, o'n ikkinchi pir – Safoi Samarqandiy bor cholg'ularni barchasida ijro etuvchi mohir sozanda sifatida ta'riflanadi. Qodirxon Yorkandiy (o'n uchinchi pir) **rubob**, **hashtorni**⁴ kashf etganligi, Muhammad Qushtigir (o'n to'rtinchi pir) zabardast pahlavon, «**Chahorzarb**» nomli musiqa asarini yaratgan ijodkor sifatida keltiriladi.

Keyingi (o'n beshinchi) pir Mavlono Lutfiyni Mo'jiziy Abu Nasr Forobiy kabi olim, Ibn Sinodek hakim, Alisher Navoiydek shoir sifatida ta'riflab, uning musiqa ilmidan ikki yuz nafar kishiga ustozlik qilgani to'g'risida aytadi. Kitobda o'n oltinchi pir – Yusuf Sakkokiy musiqa ilmida kitoblar yozgan, o'sha davrda mashhur bo'lgan «**Bayot**» nomli «**maqom**»ni ijod qilganligi haqida ma'lumot mavjud. So'nggi (o'n yettinchi) pir – Malika Omonniso musiqa fanida kamolga yetgan, bolaligidanoq ham g'azal, ham musiqa ijod qilib, uni o'zi mohirona ijro etadigan ijodkor sifatida ta'riflanadi.

Mo'jiziy kitobidagi keltirilgan ma'lumotlardan uning har bir san'atkor hayoti va ijodini puxta o'rganganligi, ular qoldirgan asarlarni chuqur tahlil qilgani va shu bilan birga o'zi ham musiqa san'ati sohasida ma'lum bilimga ega bo'lganligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Kitobda keltirilgan musiqa nazariyasi va amaliyotiga doir bo'lgan Xoja Abdulqodirning (XV asr) «Zubdat ul-advor» («Qo'shiqlar sarasi»), «Jam'i alhon» («Kuylar to'plami»), Safi'uddin Abdulmo'min Urmaviyning (XIII asr) «Kitob ul-advor» («Musiqiy davrlar kitobi»), Mavlono Qutbiddinning (XIV asr) «Durrat ul-toj» («Toj gavhari»), Darveshali Changiyning (XVII asr) «Tuhvat ul-surur» («Shodlik hadyasi»), Abdurahmon Jomiyning (XV asr) «Risolai musiqiy» («Musiqi risolasi») kabi kitoblari forsiy va arab tillarida bitilgan bo'lsa, Mo'jiziyning «Tavorixi musiqiyun» risolasi turkiy tilida yozilgan ilk kitoblardan biridir.

⁴ Hashtor – uyg'ur cholg'usi (N.Sh.)



Mazkur kitobda keltirilgan turli tarixiy ma'lumotlar musiqa, xususan Markaziy Osiyo xalqlari musiqa tarixi va nazariyasi masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar, ayniqsa shu sohada o'z faoliyatini boshlayotgan yosh tadqiqotchilar uchun qimmatli manba vazifasini o'taydi.

References:

1. Mirziyoev Sh. Dillarni dillarga, ellarni ellarga payvand etadigan san'at. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 8 sentyabr soni.
2. Mo'jiziy Ismatulloh ibn Ne'matulloh. «Tavorixi musiqiyun». T., «Mumtoz soz», 2010 y..